

9-dars. Ikki xonali songa ko'paytirish algoritmi



1. Berilgan sonlar ichiga **25** soni necha marta joylashishini aniqlang.

100

75

200

175

125

50

150

225



2. Taqqoslang.

$$a + 245 \quad \boxed{} \quad 255 + a$$

$$d \cdot 235 \overline{\square} 225 \cdot d$$

$$b - 409 \quad \boxed{} \quad b - 490$$


480 : k 720 : k

$m : 56$ $m : 66$

$$860 - c \quad \boxed{} \quad 960 - c$$

Ikki xonali songa ko'paytirish algoritmi

- ① Ko'paytuvchilar birliklar birliklar tagiga, o'nliklar esa o'nliklar tagiga tushadigan qilib yoziladi.
 - ② Birinchi to'liqsiz ko'paytma topiladi:
 $326 \cdot 5 = 1\,630$ **birl.**
 - ③ O'nliklarga o'tiladi va ikkinchi to'liqsiz ko'paytma topiladi: $326 \cdot 3 = 978$ **o'nl.**
 - ④ To'liqsiz ko'paytmalar qo'shiladi.
 - ⑤ Javob o'qiladi.
- 



3. Ustun ko'rinishida hisoblang.

a) $456 \cdot 24$

d) $234 \cdot 18$

f) $348 \cdot 25$

b) $345 \cdot 36$

e) $483 \cdot 73$

g) $481 \cdot 12$



4. Akmal geometrik masalani yechdi. Ushbu namunaga tayangan holda topshiriqni bajaring.

Bog' **kvadrat** shaklida bo'lib, uning perimetri 640 m. Shu bog'ning yuzini toping.



Beirilgan:
 $\overline{ABCD} - \square$
 $\overline{PQ} - 320 \text{ m}$
 $\overline{a} - ? \text{ m}$
 $\overline{SQ} - ? \text{ m}^2$

Yechish:
 $\overline{PQ} = a \cdot 4$
 $a = \overline{PQ} : 4$
 $a = 320 : 4$
 $a = 80 \text{ (m)}$
 $\overline{SQ} = a \cdot a$
 $\overline{SQ} = 80 \cdot 80$
 $\overline{SQ} = 6400 \text{ (m}^2\text{)}$

Javob: $a = 80 \text{ m}$;
 $\overline{SQ} = 6400 \text{ m}^2$



5. Sayyohlar birinchi kun 50 km, ikkinchi kun birinchi kundagidan 13 km kam, uchinchi kun esa ikkinchi kundagidan 7 km ko'p yo'l bosishdi. Agar ular 1 km yo'lni 10 minutda bosib o'tishgan bo'lsa, jami qancha vaqt yo'l yurishgan?



6. **Ifodalarni** yozing va ularning qiymatini **ikki usulda** hisoblang.
- a) Uzunligi 100 m bo'lgan arqondan alpinistlar uchun biri 30 m, ikkinchisi 40 m bo'lgan ikki bo'lak kesib olindi. Necha metr arqon qoldi?
- b) Alpinistlar uzunligi 132 km bo'lgan yo'lni bosib o'tishni rejalashtirishdi. Ular birinchi kun 35 km, ikkinchi kun esa 45 km yo'l bosishdi. Alpinistlar yana necha kilometr yo'l bosishlari kerak?



7. **Xatolarni** toping. Ifodalarning qiymatini to'g'ri hisoblang.

$$\begin{array}{r} * 24560 \\ 24 \\ \hline 49120 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} * 4805 \\ 34 \\ \hline 19200 \\ + 14415 \\ \hline 33615 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} * 5245 \\ 53 \\ \hline 15625 \\ + 26005 \\ \hline 275675 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} * 4250 \\ 49 \\ \hline 3625 \\ + 1680 \\ \hline 204250 \end{array}$$



8. Ustun ko'rinishida hisoblang.

$$472 \cdot 45$$

$$563 \cdot 57$$

$$428 \cdot 83$$

$$236 \cdot 92$$

$$349 \cdot 39$$

$$675 \cdot 67$$

9. Vazira har biri 16 000 so'mdan 25 ta bloknot va har biri 8 000 so'mdan 54 ta ruchka sotib oldi. U xarid uchun jami necha so'm to'lagan? Bloknotlarga ruchkalarga qaraganda necha so'm kam to'lagan?

	narxi (a)	miqdori (n)	qiymati (C)
bloknotlar	16 000 so'm	25 ta	? so'm
ruchkalar	8 000 so'm	54 ta	? so'm

? so'm } ? so'm kam

